

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI DARS DAN TASHQARI
MASHG'ULOTLAR NEGIZIDA IJODIY FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISH**

Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida

(PhD), katta o'qituvchisi

Mamatova O'ktamxon Odilovna

Boshlang'ich ta'lim 20.65 guruh talabasi, Toshloq tumani 20-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning bilish faoliyatni yo'lga qo'yish, bilim olish istagini o'stirish, fikrlarini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan o'quv-tarbiyaviy ishlar jarayoni bilan tanishildi.

Kalit so'z: ijod, ijodkorlik, qiziqish, ilhom, intilish, faoliyat

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilim va ko'nikmalarini miqdoriy solishtirish natijalari, tajriba va nazorat guruhlarida bilish faoliyatiga yo'naltirilganlik darajasi tadqiqot ishiga doir maxsus tayyorlangan savolnomalar asosida aniqlandi. Mazkur savolnoma orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faoliyatni rivojlantirishning pedagogik tizimining mavjud holati aniqlangan edi. Tajriba guruhida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishga oid turli metodlardan foydalanildi va u uch bosqichda amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari bo'yicha samaradorlik aniqlandi. Samaradorlikni aniqlash quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib borildi:

aynan texnologiya amallarni, mashqlarni o'rganish bo'yicha;

aynan texnologiyaga oid ko'nikma va malaka, kompetensiyani shakllantirish bo'yicha;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni shakllantirish bo'yicha;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv muhiti bo'yicha va h.k.

Bu qayd etilgan yo'nalishlar bo'yicha taqqoslash va umumlashtirishlardan foydalanildi.

Tajriba ishlari uch bosqichda amalga oshirildi:

Tadqiqot doirasida tajriba ishlarining birinchi bosqichi ta'kidlovchi Tajribaishlaridan iborat bo'lib, uning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish va fikrlarini o'stirishning ta'lim amaliyotidagi holatini o'rganish va mavjud muammolarni aniqlashdan iborat. Tajriba ishlari maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi va amalga oshirildi:

1-4 sinf o'quvchilari uchun texnologiya darsligi va manbalari o'rganildi va tahlil qilindi;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajalarining holati aniqlandi;

so'rovnoma va test savollari yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatiga oid dastlabki bilim, ko'nikma, malakalari tizimi o'rganildi;

uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning bilish faoliyatni yo'lga qo'yish, bilim olish istagini o'stirish, fikrlarini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan o'quv-tarbiyaviy ishlar jarayoni bilan tanishildi.

Ta'kidlovchi tajriba ishlari natijalarini ilmiy-nazariy tahlil qilish jarayonida quyidagilarga asosiy e'tibor qaratildi:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish, texnologiyadan fikrlarini oshirish bo'yicha D T S, o'quv dasturi, darsliklar va qo'llanmalarining yutuq va kamchiliklari tahlil qilindi va aniqlandi.

2. Pedagoglarning boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faolligini oshirish xamda rivojlantirish haqidagi fikrlarini umumlashtirish maqsadida so'rovnoma javoblari tahlil qilindi va umumlashtirildi.

3. Amaliy ishlari jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlandi va bartaraf etish choralari ishlab chiqildi.

Yuqoridagilar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish, texnologiya ta'limiga oid bilimlarini o'stirish, mantiqiy va tahliliy fikrlarini rivojlantirishning mavjud holati va uni takomillashtirish yo'nalishlari aniqlandi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilish faoliyatni rivojlantirishga oid tushunchalar, ko'nikma va malakalarini talab darajasida rivojlantirish jarayonining mazmuni, shakl va metodlari to'g'risida ma'lumotlar to'plandi.

Olingan natijalar umumlashtirildi, xulosalar chiqarildi va muammo doirasida doimiy monitoring o'rnatildi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida texnologiyaga oid bilimlarini, u asosida ijodiy faolligini rivojlantirish doirasida olib borilgan anketa so'rovlari shuni ko'rsatdiki, ular boshlang'ich sinf o'quvchilarida texnologiya ta'limi doirasida ijodiy faoliyatni rivojlantirish asosan nostandart topshiriqlarni bajarishda samarali amalga oshirilishini ta'kidlashdi. Bu borada musobaqalar, maktablarda o'tkaziladigan bilimlar bellashuvining ahamiyatini yuqori baholashdi. Bundan ko'rinadiki, ta'lim-tarbiya jarayonining amaliyot bilan bog'lanishiga muhim e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Tajriba jarayonining keyingi bosqichida shakllantiruvchi Tajribaishlari olib borildi. Olib borilgan jarayonda ta'kidlovchi Tajribaishlari davomida aniqlangan ziddiyat va kamchiliklarga barham berish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan ta'lim mazmuni va modelini, o'qitishning samarali metod, shakl, vositalarini amaliyotda sinab ko'rish hamda takomillashtirish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Bu borada quyidagi vazifalar belgilandi:

tajriba va nazorat guruhlarini belgilash. Respondentlarga Tajribaishlarini amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad, vazifalar va ularning ushbu jarayonda tutgan o'rni haqidagi ma'lumotlarni berish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida texnologiya ta'limi asosida ijodiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mazmun, metodika hamda o'quv materiallari asosida tajriba guruhlarini ta'lim jarayonini tashkil etish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida texnologiya ta'limi asosida ijodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarini va jarayonini doimiy monitoringini davom ettirish, tajriba va nazorat guruhlaridagi natijalarni taqqoslash hamda tahlil qilish;

Tajribaishlari jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish;

olingan natijalarga ko'ra ta'lim amaliyoti uchun belgilangan metodikani takomillashtirish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida texnologiya ta'limi asosida ijodiy faoliyatni rivojlanganlik darajasini belgilovchi mezonlarni ishlab chiqish.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Oljayevna, O., & Shavkatovna, S. (2020). The Development of Logical Thinking of Primary School Students in Mathematics. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(2), 235-239.
2. Uljaevna, U. F., & Shavkatovna, S. R. (2021). Development and education of preschool children. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 326-329.
3. Shavkatovna, S. R. N. (2021). Methodical Support Of Development Of Creative Activity Of Primary School Students. *Conferencea*, 74-76.

4. Ra'noxon, S. (2022). Boshlang'ich maktab o'quvchilarida matematikaga munosabat. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 2(11), 203-207.
5. Shavkatovna, S. R. (2021). Methodological Support for The Development of Primary School Students' Creative Activities. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 2, 121-123.
6. Shavkatovna, S. R. (2021). Improvement of methodological pedagogical skills of developing creative activity of primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 289-292.
7. Шарофутдинова, Р., & Абдуллаева, С. (2022). Фикрлаш қобилиятини ривожлантиришда ментал арифметика. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 2(11), 235-239.
8. Maxamadaliyevna, Y. D., Òljayevna, Ò. F., Qizi, T. D. T., Shavkatovna, S. R. N., & Anvarovna, A. O. (2020). Pedagogical Features Of Mental Development Of Preschool Children. *Solid State Technology*, 63(6), 14221-14225.
9. Sharofutdinova, R. I., Asadullaev, A. N., & Tolibova, Z. X. (2021). The Factors and Basic Concepts Determining Community Health. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 2(5), 376-379.
10. Iqboljon, S. (2022). Boshlang'ich Sinf o'quv Jarayonida Axborot Texnologiyalaridan Foydalanish. *Ijodkor o'qituvchi*, 2(20), 137-140.
11. Iqboljon, S. (2022). Kompyuter yordamida darslarni tashkil etish. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 1(9), 246-249.
12. Sharofutdinov, i. (2023). Development of acmeological competence of future educators in the conditions of informing education. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(5), 424-429.
13. Sharofutdinov, i. (2023). The actual status of the methodology of developing acmeological competence of future educators in the conditions of informing education. *Академические исследования в современной науке*, 2(12), 206-213.
14. Sharofutdinov, I. (2023). Bo 'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish metodikasining amaliyotda qollash. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(7), 54-58.
15. Sharofutdinov, I. (2023). Pedagogik-psixologik fanlarning bo 'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishdagi o 'rni. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(6), 17-24.
16. Sharofutdinov, I. (2023). Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo 'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik tizimi. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(14), 13-19.
17. Sharofutdinov, I. (2023). Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo 'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish modeli. *Наука и технология в современном мире*, 2(13), 77-84.
18. Sharofutdinov, I. (2023). Structure and components of the development of acmeological competence of future educators in the conditions of education information. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(4), 574-580.
19. Sharofutdinov, I. (2023). Forms of self-development in future pedagogues based on the acmeological approach in the process of informatization of education. *Science and innovation*, 2(b3), 5-8.
20. Usmonjon o'g'li, s. I. (2022). Ta'lim tizimida raqamli texnologiya. *Innovative developments and research in education*, 1(12), 120-128.